

ABDURAHMON TAMKIN IJODIGA ILMIY NAZAR

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Buxoro xalqaro universiteti Filologiya kafedrasi mudiri

O'zbekiston, Buxoro

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan zabardast shoir va mutafakkir Abdurahman Tamkinning hayoti hamda adabiy merosi ilmiy tahlil qilinadi. Unda shoir ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, g'azalchilikdagi mahorati, mumtoz adabiyot an'analari bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, Tamkin she'riyatida xalqona ruh, badiiy tasvir vositalari va aruz tizimining o'ziga xos qo'llanilishi tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Abdurahmon Tamkin, g'azal, mumtoz adabiyot, aruz, qofiya, badiiyat, XIX asr adabiyoti*

НАУЧНЫЙ ВЗГЛЯД НА ТВОРЧЕСТВО АБДУРАХМАНА ТАМКИНА

Чориева Мехринисо Киёмиаддиновна

доктор философии (PhD) по филологическим наукам

заведующая кафедрой филологии

Бухарский международный университет

Узбекистан, Бухара

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ жизни и литературного наследия Abdurahman Tamkin — выдающегося поэта и мыслителя, творившего в конце XIX – начале XX века. Рассматриваются идейно-художественные особенности его творчества, мастерство в жанре газели и связь с традициями классической литературы. Также анализируются народный дух поэзии Тамкина, художественные средства выразительности и особенности применения арузной системы.*

Ключевые слова: *Абдурахман Тамкин, газель, классическая литература, аруз, рифма, поэтика, литература XIX века*

A SCIENTIFIC APPROACH TO THE WORKS OF ABDURAHMAN TAMKIN

Choriyeva Mehriniso Qiyomiddinovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Head of the Department of Philology

Bukhara International University

Uzbekistan, Bukhara

Abstract: *This article provides a scholarly analysis of the life and literary heritage of Abdurahman Tamkin, a prominent poet and thinker who lived and worked in the late 19th and early 20th centuries. It examines the ideological and artistic features of his творчество, his mastery in the ghazal genre, and its connection with the traditions of classical literature. The paper also analyzes the national spirit of Tamkin's poetry, artistic expressive means, and the specific use of the aruz system.*

Keywords: *Abdurahman Tamkin, ghazal, classical literature, aruz, rhyme, poetics, 19th-century literature*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida XIX asr oxiri – XX asr boshlari muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda an'anaviy she'riyat yangi mazmun bilan boyib, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar adabiyotda ham aks eta boshladi. Shu davr ijodkorlari orasida Abdurahman Tamkin alohida o'rin tutadi. Uning ijodi mumtoz adabiyot an'analari davomchisi bo'lishi bilan birga, o'ziga xos badiiy qarashlari bilan ham ajralib turadi.

Asosiy qism

Abdurahmon Tamkin ijodi, avvalo, uning kuchli hissiyati, boy tili va chuqur ijtimoiy qarashlari bilan xarakterlanadi. Shoir o'z asarlarida inson ruhiyati, muhabbat, jamiyatdagi kamchiliklar hamda ma'naviy qadriyatlarni o'ziga xos badiiy uslubda ifodalaydi.

Mumtoz adabiyot an'alariga ko'ra, she'riyat uch asosiy ilmga tayanadi: aruz, qofiya va badiiyat. Tamkin ijodida ushbu unsurlar mukammal uyg'unlashgan. Ayniqsa, uning g'azallarida aruz vaznining nozik imkoniyatlari, qofiya tizimining rang-barangligi hamda badiiy san'atlarning keng qo'llanilishi kuzatiladi.

Shoirning:

"Anqitar xush bo'yini dil yayratar gul bir tomon,
Gul ufori bir tomon, nola-i bulbul bir tomon"

matla'li g'azali uning yuksak mahoratini yaqqol namoyon etadi. Ushbu g'azalda gul va bulbul timsollari orqali ishqiy kechinmalar ifodalanadi. Asarda tashbeh, tanosub, takror, laff va nashr kabi badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanilgan.

Tamkin g'azallarining yana bir muhim jihati — ularning xalq tiliga yaqinligi va soddaligidir. Shoir turkiy, forsiy va arabiy so'zlarni uyg'un holda qo'llab, she'riyatga ohangdorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi.

Abdurahmon Tamkin ijodiga nazar solar ekanmiz, shoir tuyg'ulari nechog'li kuchli, ko'zi qanchalik o'tkir, tili qanchalik boy, ijtimoiy hayotga qarashi keng, xalqning quvonch-u iztiroblarini tuyish, inson qalbining tovlanish-larini, jilvalarini his etish kabi jihatlar o'ziga xos usulda bo'y ko'rsatganiga guvoh bo'lamiz. Shoir yash-agan davr ziddiyatlarga to'la bo'lib, bu uning asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, biroq shoirning ko'plab asarlari borki, ularda xalqimizning ruhi ham aks etgan. Zero, ruh mangudir. Milliy ruh aks etgan Tamkin she'riyati esa umrboqiy asarlar sirasiga mansub hisoblanadi (Qarang 1-rasm).

Bulardan birinchisi aruz she'ning vazni, o'lchovi haqidagi ilm bo'lsa; ikkinchisi qofiya ilmi haqida bahs yuritadi; uchunchisida esa chiroyli so'zlash, nodir, go'zal, ajoyib ifoda ilmi haqidagi qarashlar ilgari suriladi.

Badiiyat ilmi "ilmi bade" deb ham yuritiladi va shoirning lafziy va ma'naviy hamda lafziy-ma'naviy san'atlarni qay darajada qo'llay olish mahoratini tahlil qiladi. 1-rasm



A.Tamkin Buxoriyning o'z davrida shoir sifatida tanilishida u yaratgan go'zal g'azallar ham asos bo'ldi desak, xato bo'lmas. Chunki, shoirning shoirliigi uning g'azalchilikdagi mahorati bilan belgilanishi va shund-agina devon tuza olishga haqli ekanligi aruz tizimining an'anaviy talablari bilan ekanligining o'ziyiq,Tamkin devonini yuksak saviyadagi g'azallar bezaganligidan darak beradi.

Tamkin lirik shoir sifatida ham gavdalanadi. U o'z g'azallarida nozik xayol, sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Betakror o'xshatishlar, go'zal, esda qoladigan tashbehlar, kutilmagan mubo-lag'ali tasvirlar bilan ma'shuqaga iltijo qiladi. Shoirning ishqiy mavzudagi she'rlarida, asosan, real yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan ishqini ko'rish mumkin. Biroq shoir she'rlarida yana botiniy va zohiriy ishq uyg'unligi qorishiq holatlar ham borki, shoir jism va ruh, shakl va mazmun birligini istagan.

Shoirning: Anqitar xush bo'yini dil yayratar gul bir tomon,

Gul ufori bir tomon, nola-i bulbul bir tomon

– matla'li g'azali 15 hijoli bo'lib, aruzning ramali musammani mahzuf yoki maqsur bahrida yozilgan.

G'azalning ikkinchi baytining ikkinchi misrasi ra-mali musammani solimda yozilgan. Ya'ni 16 hijodan iborat bo'lib, ruknlardagi hijolar soni teng, ya'ni solim. Bu g'azalning uch vaznda yozilganidan dalolat beradi.

Ushbu g'azal oshiqona g'azal hisoblanib, unda rindona ruh ham sezilib turadi.

G'azal eng ko'p uchraydigan yetti baytli g'azallar qatoriga kiradi: 7 bayt, 14 misradan iborat.

Qofiya tizimi quyidagilardan iborat: gul, bulbul, sunbul, g'ul-g'ul, tag'oful, qul-qul, ko'ngul, tajohul. Shoir g'azal qofiyasida so'zlar tuzulishidagi rang-baranglikka erishgan va bu

g'azalning o'ynoqi va zojibadorligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan: gul, sunbul, ko'ngul, tag'oful, tajohul- sodda so'z hisoblansa; g'ul-g'ul, qul-qul tuzilishiga ko'ra takror so'z hisoblanadi.

Qofiyadosh so'zlar turkiy, forsiy va arabcha so'zlar uyg'unligini hosil qiladi. Masalan: gul, qul-qul, g'ul-g'ul, so'zlari turkiy so'zlar bo'lsa, tag'oful, tajohul so'zlari arabcha so'zlar hisoblanadi.

Qofiyadagi tirgak tovush, ya'ni raviy "l" undosh tovush bo'lib, ohandorlikni saqlab turibdi. G'azal qofi-yasi raviy bilan tugalganligi uchun muqayyad qofi-yaga misol bo'ladi.

Qofiya shakli esa quyidagicha: a-a, b-a, s-a, d-a, e-a, g-a, n-a

G'azaldagi "bir tomon" sintaktik birligi radif sifatida qo'llanib, shoirning maqsadi va mashuqa ta'rifi ta'sirini yanada oshirishga xizmat qilgan. Shoir taxallusi maqtada beriladi. G'azal uch asosiy qism: matla', begona bayt va maqta'dan tashkil topgan.

G'azal tili jonli xalq tiliga yaqinligi bilan yanada go'zallashadi. Bu go'zallikni shoir matla'da saj usulini qo'llash, ya'ni ichki qofiyadan foydalanish bilan yana-da oshiradi. Badiiy ijod namunalarini yaratishda tabiat, borliq shoirga ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun shoirlar tabiatning yoki borliqning gul, bulbul, sunbul, lola, qushlar kabi obraz va unsurlaridan o'rinli foydalanadilar.

Shoir matla'da qaytarish san'atining go'zal namunalaridan har bir baytda juda o'rinli foydalangan.

Masalan, matla'da radd-ul-aruz il-al-hashvdan ma-horat bilan foydalanilgan:

1-misraning oxiridagi "bir tomon" so'zi 2-misraning o'rtasida yana qaytarilgan

Matla'da 2 ta timsol yoki ramziy obrazdan foydalanilgan – gul va bulbul obrazlari. Shoir o'z fikrini shu ikki timsol vositasida bera olgan. Shu ruh g'azal oxiri-gacha yetakchilik qilib, silsilali tarzida o'sib borgan.

Matla'da shoir intoq san'atidan mohirona foydalangan. Ya'ni, bulbul nolasi orqali oshiq dil izhorini ochib bergan- gulning betakror ifori bulbulni so'zlatib yuborganday taassurot hosil qiladi, go'yo.

Shuningdek, matla'da mulamma san'atidan ham, ya'ni forsiy va turkiy so'zlarni teng qo'llash san'atidan ham mahorat bilan foydalanilgan:

Masalan: xush – yoqimli,

Bo'y – hid.

Ikkinchi baytga diqqat qiladigan bo'lsak:

Bir chaman nargiz ko'z-u savsan zabonini ochib,

Zulfiga oro beribdir taqqancha sunbul bir tomon.

Shoir unda gul va bulbul timsolini rivojlantirib, go'yo gullar bilan bezangan chaman ichida sunbul o'zgacha chiroy kashf etgan: u xumor ko'z-u, shirin tilini chiqarib zulfiga oro berib, ko'zni quvnatmoqda, deydi. Sunbul shunchalik betakrorki, gulzor ichra o'zi bir tomon hisoblanadi, go'yo. Ayni paytda, bu bayt mohiyatida dunyo bir chamanzor, unda turli gullar-yaxshi amalli odamlar o'zgacha chiroy hisoblanishi, bunday xislat egasi borliqning – chamanzorning eng yagona "guli" ekanligi ta'kidlanadi. Baytda tanosub san'atidan o'rinli

foydalanilgan. Masalan: 1) zabon, ko'z, zulf so'zlari bir guruhni hosil qilsa; 2) sunbul, nargiz so'zlari ikkinchi guruhni hosil qilgan.

Shoir sunbul tarifini keltirar ekan, uning husn-i malohatda tanholigigani ishora qiladi.

Shoir ushbu g'azalda bir qator badiiy san'atlarni "erkalik" bilan qo'llay olgan. Ayni paytda, g'azalning boshidan oxir "laff va nashr" san'atidan ham katta ma-horat bilan foydalangan

Xulosa.

Tamkin g'azallarining o'ziga xos xususiyati shun-daki, u qaysi tilda yozmasin, xalqona ruh va xaqi tiliga yaqinlik, soddalik va ohangdorlik yetakchilik qiladi

Xulosa qilib aytganda, Abdurahman Tamkin o'z davrining yetuk shoirlaridan biri sifatida mumtoz adabiyot an'analarini munosib davom ettirgan ijodkor hisoblanadi. Uning asarlarida milliy ruh, insoniy kechinmalar va badiiy mukammallik uyg'unlashgan. Tamkin ijodi nafaqat o'z davri, balki bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-may kuni Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida so'zlagan nutqi.
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 1964.
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi.-Toshkent: Fan, 2006.70-b
4. Ahmad Donish. Daftari Musabbada. Dastnavisi ganjinayi dastnavistoyhoi sharqiy. – AFRSS, O'zbekiston.
5. Vohidov S. Buxoriylar bo'stoni. – Buxoro: Yozuvchi, 1998. – B. 137–138.
www.literature/az;